

# BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MULTIMEDIA TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB MUSTAQIL FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH

**Eshmurodova Zarinabonu Obidjonovna**

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti ,

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

4- bosqich talabasi

## **Annotatsiya**

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda multimedia vositalarining o'rni va ularning ahamiyati haqida keltirilgan . Shuningdek, maqolada mustaqil fikrlash tushunchasi, uning rivojlanish bosqichlari va zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ushbu jarayonga ta'siri haqida aytiladi . Ta'lim jarayonida qo'llanadigan interaktiv vositalar, raqamli resurslar, virtual laboratoriyalar, mobil ilovalar va dasturlash asoslarining qo'llanilishi o'quvchilarning ijodiy salohiyatini oshirishdagi muhim omil sifatida ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** mustaqil fikrlashi , multimedia vositalari , rivojlanish bosqichi , zamonaviy ta'lim texnologiyalari, interaktiv vositalar, raqamli resurslar, virtual laboratoriyalar, mobil ilovalar va dasturlash asoslari .

## **Abstract**

This article discusses the role and importance of multimedia tools in the development of independent thinking of primary school students. The article also discusses the concept of independent thinking, its stages of development and the impact of modern educational technologies on this process. The use of interactive tools, digital resources, virtual

laboratories, mobile applications and programming fundamentals used in the educational process is shown as an important factor in increasing the creative potential of students.

**Keywords:** independent thinking, multimedia tools, development stage, modern educational technologies, interactive tools, digital resources, virtual laboratories, mobile applications and programming fundamentals.

XXI asr texnologiyalar rivojlanayotgan , ommalashgan davr hisoblanadi. , Hozirgi kunda multimedia vositalaridan har bir sohada samarali foydalanilmoqda . Shu qatorda ta'lim sohalarida ham juda ko'p uchramiz . Shu sababli bo'lajak o'qituvchilardan ham multimedia ilovalaridan ya'ni ta'lim texnologiyalaridan foydalana olish mahoratiga alohida e'tibor berilmoqda . Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish , rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, multimedia vositalari o'quv jarayonining , dars jarayoning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Multimedia vositalari — bu matn, grafik tasvirlar, audio va video materiallar va animatsiyalarni o'z ichiga olgan axborot uzatish shaklidir. Multimedia vositalari o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli, samarali va tushunarli qiladi.

Boshlang'ich sinfda o'qiydigan o'quvchilarining psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, multimedia vositalari ularning diqqatini jalb etishda muhim vosita hisoblanadi. Rangli tasvirlar, harakatli animatsiyalar va ovozli materiallar o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otibgina qolmay e'tiborini ham tortadi. Bu esa o'z navbatida, ularning mustaqil o'rganishga bo'lgan intilishini kuchaytiradi, diqqatini jamlashga ham yordam beradi

Multimedia vositalari yordamida berilgan topshiriqlar o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi. Masalan, interaktiv mashqlar, testlar va muammoli vaziyatlar orqali o'quvchilar mustaqil ravishda qaror qabul qilishga, tahlil qilishga , izlanishga va xulosa chiqarishga o'rganadilar. Mustaqil fikrlashni rivojlantirishning eng samarali metodlaridan biri – muammoli ta'lim texnologiyalari , metodlaridir. Bu usulda

o‘quvchilar oldiga muammo qo‘yiladi va ular uni hal qilish yo‘llarini mustaqil ravishda izlashlari kerak bo‘ladi . Masalan, matematika darsida umumiy qancha bo‘ldi , ikki baravar oshirsak qancha bo‘ladi kabi savollar orqali o‘quvchilarni mustaqil va mantiqiy fikrlashga undash mumkin. “Aqliy hujum” usuli o‘quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, Bunda barcha g‘oyalar qabul qilinadi va tanqid qilinmaydi. Savol javob metodikasini Bloom taksonomiyasi asosida takomillashtirish orqali turli darajadagi ochiq savollar qo‘yishimiz mumkin: “Nima uchun bu hodisa sodir bo‘ldi?”, “Agar vaziyat boshqacha bo‘lganida nima bo‘lar edi?” kabi savollar o‘quvchilarni chuqur fikrlashga undaydi. Dars jarayonida turli xil fanlarni turli metodlar orqali tashkil etish darsni samarali , tushunarli bo‘lishiga sabab bo‘ladi . Misol uchun, interfaol metodlar — o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida faol muloqot asosida bilim olishga yo‘naltirilgan ta’lim usullaridan hisoblanadi . Boshlang‘ich ta’limda interfaol metodlar o‘quvchilarning dars jarayonidagi ishtirokini kuchaytiradi, mustaqil fikr yuritishga undaydi va tanqidiy fikrlash , ijodkorlik salohiyatini oshiradi. Aqliy hujum - o‘quvchilar berilgan muammo bo‘yicha imkon qadar ko‘proq g‘oya ilgari suriladi , o‘quvchilarning o‘zlariga mavzu bo‘yicha tasodifiy qiziqarli savol beriladi va keyin ular ya’ni o‘quvchilar o‘zlarini fikrlash doirasidan kelib chiqib javob berishadi , fikr bildirishadi . Klaster: asosiy tushunchani markazga yozib, unga bog‘liq g‘oyalarni tarmoqlab yozish orqali tafakkurni tizimlashtirish mumkin. Masalan , o‘qish fanidan o‘tilgan ertak yoki hikoya bo‘yicha qo‘llash mumkin . Bunda ertak qahramon yoki ertak nomi yozilib uni keng tarmoqlash mumkin , bu orqali berilgan mavzu yaxshi esda qoladi va mustahkamlanadi . Insert: matn ustida ishlashda belgilar qo‘yib, ma’lumotni tahlil qilish va xulosaga kelish bu usul ham o‘quv jarayonida qo‘llash uchun juda samarali . Keyingisi debat usuli ikki guruh fikrini bahslash orqali dalillash . Mavzu bo‘yicha guruhlarni mustaqil fikrlashini bahs munozara orqali isbotlab berish , keltirish . O‘yinlar va ijodiy topshiriqlar bolalar va kattalarning mustaqil , tanqidiy , ijodiy fikrlashini rivojlantiradi, chunki ular muammolarni tahlil qilish, g‘oyalar ishlab chiqish va ijodiy yechimlarni topishga o‘rgatadi. Bu mashg‘ulotlar, ijodkorlikni oshiradi, fikrlash doirasini yaxshilaydi va kengroq qarashlarni , fikrlashlarni taklif qiladi . Keltirilgan metodlar , o‘yinlarni to‘g‘ri vaqtda , to‘g‘ri usulda qilish pedagog

o'qituvchiga bo'g'liq albatta . O'qituvchi uchun muhim texnik bazani mustahkamlash ya'ni maktablarda zamonaviy kompyuterlar, proyektorlar, interaktiv doskalar va barqaror internet bilan ta'minlab berish va foydalana olish ko'nikmasi . Bu pedagogga multimedia vositalaridan to'liq foydalanish imkonini beradi. O'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish . O'qituvchilar uchun doimiy ravishda seminar, trening va amaliy mashg'ulotlar tashkil etilishi lozim . Bu ularga yangi dasturlar va platformalarni o'rganishga yordam beradi. Darsni to'g'ri loyihalash multimedia vositalari shunchaki ko'rsatish uchun emas, balki aniq maqsad asosida qo'llanilishi kerak. Har bir multimedia vositalari darsning maqsadiga xizmat qilishi kerak deb o'ylayman. O'quvchilar yoshiga mos kontent, mavzu tanlash boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun sodda, tushunarli va qiziqarli materiallar, qo'llanmalar tanlanishi zarur. Ortiqcha murakkab yoki uzun keltirilgan materiallar samarasiz, tushunarsiz bo'lishi mumkin. Faol metodlar bilan uyg'unlashtirish, qo'llash. Multimedia vositalarini faqat tomosha qilish bilan cheklamasdan, uni savol-javob, muhokama, guruhli ishlar, debat bilan bog'lash muhim va samarali. Vaqtni to'g'ri taqsimlay olish ko'nikmasi ham juda muhim , chunki berilgan vaqt ichida mavzu batafsil yoritilmasa , vazifalar to'liq tushuntirilmasa o'quvchilar yetarlicha bilimga ega bo'lmasligi va o'qituvchi uchun ham noqulay holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Dars davomida multimedia vositalaridan me'yorida foydalanish kerak. Haddan tashqari ko'p foydalanish o'quvchini charchatishi hamda diqqatini susaytirishi mumkin. Nazorat va tahlil qilish usuli . Multimedia orqali o'tilgan darsdan so'ng o'quvchilarning bilim darajasini tekshirish, natijalarni tahlil qilish va keyingi darslar uchun xulosalar chiqarish zarur. Ota-onalar bilan hamkorlik o'qituvchi uchun juda muhim , ota-ona ham o'z farzandi tarbiyasi , o'zlashtirishi bilan qiziqishi shart . O'qituvchi uy sharoitida ham o'quvchilar multimedia vositalaridan to'g'ri foydalanishi uchun ota-onalarga tavsiyalar berish kerak.

Xulosa qilib aytish kerakki , multimedia usuli bolalarni har qanday ko'nikmasini rivojlantirishga faol yordam beradi . Faqatgina mustaqil fiklash ko'nikmasi bilan cheklanib qolmaydi . O'ylaymanki to'g'ri qo'llansa , foydalanilsa samarali usuldir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ;

1. <https://in-academy.uz/index.php/yoitj/article/download/46488/29664/50635>
2. <https://digitalmediakompitentlik.wordpress.com/oqituvchilarning-pedagogik-psixologik-mediakompitentlini-rivojlantirish/>
3. <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/download/35498/22682/36681>
4. <https://in-academy.uz/index.php/yoitj/article/download/43686/27742/46812>